

Malakali kadrlar – korrupsiyaga qarshi samarali kurashishning asosiy kuchi

// 21.11.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/malakali-kadrlar-korrupsiyaga-qarshi-samarali-kurashishning->



Korrupsiya – davlat taraqqiyotining asosiy kushandasi bo'lib, uning davlat va jamiyatga yetkazadigan zarari boshqa jinoyat turlariga nisbatan ancha keng qamrovlidir. Bu zarar nafaqat moddiy yoki ma'naviy talafotlarda, balki ko'pincha o'rnini qoplab bo'lmaydigan yo'qotishlarda ham namoyon bo'ladi.

So'nggi yillar tahlillariga ko'ra, ko'rilayotgan qat'iy choralarga qaramay korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlardan yuqori darajadagi bilim, malaka va amaliy tajribani talab etadi.



Korrupsiyaga qarshi samarali kurashish va uning oldini olishda malakali kadrlarni tayyorlash, davlat organlari o'rtasidagi hamkorlik, axborot va tajriba almashinuvi muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida "Korrupsiyaga qarshi kurashish – taraqqiyot kafolati" mavzusida o'tkazilgan davra suhbatida "O'zkimyosanoat" AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi mutaxassislari ham ishtirok etdi.



Jamiyat mutaxassislari ishlab chiqarish sohalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xatarlar, manfaatlar to'qnashuvi holatlari va ularni oldini olish bo'yicha olib borilayotgan amaliyot hamda tajriba xususida batafsil ma'lumotlar berib o'tishdi.



Bu kabi tadbirlar va o'quv jarayonlari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimida tajribali va bilimli kadrlar tayyorlanishiga mustahkam zamin yaratadi.



"O'zbekimiyosanoat" AJ Matbuot xizmati